

BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI LOYIHALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTENSIV VA INNOVATSION YECHIMLARI

Qodirov Jasurbek Abubakir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bosh mutaxassisi – O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi

Annotatsiya: *Dunyo miqyosida yuzaga kelayotgan iqlim o'zgarishlari, aholi sonining o'sishi, suv va yer resurslarining cheklanganligi kabi global muammolar barqaror qishloq xo'jaligini ta'minlashga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi agrar davlatlarda bu muammolarni hal qilishning asosiy yo'li -intensiv va innovatsion yechimlar asosida qishloq xo'jaligi loyihalarini shakllantirishdir. Mazkur maqolada ana shu yechimlar mazmuni, ularning samaradorligi va rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritiladi.*

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan o'rganish va tahlillari shuni ko'rsatadiki, ayni paytda qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ixtisosligini o'zgartirish, yaylov yerlarining boshqaruv tizimini takomillashtirish, iqlim o'zgarishi sharoitida quyosh panellari ostida mahsulot yetishtirish, qishloq xo'jaligini raqamlashtirishni yanada kengaytirish, tuproq unumdorligini innovatsion texnologiyalar orqali oshirish eng zarur islohotlar va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Barqaror qishloq xo'jaligi loyihalari, uchuvchisiz uchish apparatlari, raqamlashtirish, quyosh panallari, yaylov yerlaridan samarali foydalanish.*

Аннотация: *Глобальные проблемы, такие как изменение климата, рост численности населения, ограниченность водных и земельных ресурсов, усиливают потребность в устойчивом сельском хозяйстве. Особенно в аграрных странах, таких как Узбекистан, основным способом решения этих проблем является формирование сельскохозяйственных проектов на основе интенсивных и инновационных решений. В данной статье рассматриваются содержание этих решений, их эффективность и перспективы развития.*

Исследования и анализы, проведенные в рамках работы, показывают, что в настоящее время использование беспилотных летательных аппаратов в производстве сельскохозяйственной продукции, трансформация специализации сельскохозяйственных производителей, совершенствование системы управления пастбищными землями, выращивание продукции под солнечными панелями в условиях изменения климата, расширение цифровизации сельского хозяйства, а также повышение плодородия почвы с помощью инновационных технологий являются наиболее важными реформами и ключевыми факторами обеспечения продовольственной безопасности.

Ключевые слова: Устойчивые сельскохозяйственные проекты, беспилотные летательные аппараты, цифровизация, солнечные панели, эффективное использование пастбищных земель.

Abstract: Global challenges such as climate change, population growth, and the limited availability of water and land resources are increasing the demand for sustainable agriculture. Particularly in agrarian countries like Uzbekistan, the primary way to address these issues is through the development of agricultural projects based on intensive and innovative solutions. This article discusses the essence of these solutions, their effectiveness, and their development prospects.

The research and analyses conducted within the study indicate that, currently, the use of unmanned aerial vehicles in agricultural production, the transformation of the specialization of agricultural producers, the improvement of pastureland management systems, crop cultivation under solar panels in the context of climate change, the expansion of agricultural digitalization, and the enhancement of soil fertility through innovative technologies are among the most critical reforms and key factors in ensuring food security.

Keywords: Sustainable agricultural projects, unmanned aerial vehicles, digitalization, solar panels, efficient use of pasturelands.

KIRISH

Qishloq xo'jaligida intensiv rivojlanish nima?

Intensiv rivojlanish – mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish orqali mahsulot hosildorligini ko'paytirish, yer va suv resurslarini tejash, agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish hisoblanadi. Bu tizimda quyidagi tamoyillar muhim hisoblanadi:

Yuqori hosilli va iqlimga bardoshli navlardan foydalanish;

Ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etish;

Qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish;

Ekinlar strukturasini optimallashtirish.

Innovatsion yechimlar va texnologiyalar

Innovatsion yondashuvlar – qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardosh mahsulot yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda quyidagi innovatsion yechimlar faol joriy etilmoqda:

Uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish orqali ekin maydonlarini monitoring qilish, zararkunandalarga qarshi kurash, ug'itlash ishlarini tashkil qilish hosildorlikni 15-20% ga oshirmoqda.

Aqlli suv boshqaruvi (Smart Irrigation) tizimini bosqichma-bosqich qo'llash, ya'ni tomchilatib sug'orish va sensorlar yordamida avtomatik suv ta'minoti tuproq namligini hisobga olib, suv sarfini 30-40% ga kamaytiradi.

Qishloq xo'jaligida biotexnologiyalardan foydalanish, genetik modifikatsiya

qilinmagan, lekin iqlim sharoitiga mos navlarni yaratish orqali hosildorlikni oshirish. Bu o'z navbatida, barqaror qishloq xo'jaligi loyihalarini rivojlantirish istiqbollarning muhim manbai sifatida qaraladi.

O'zbekistonda innovatsion loyihalarning amaliyotdagi qo'llanilishi

So'nggi yillarda mamlakatda qator intensiv va innovatsion qishloq xo'jaligi loyihalari amalga oshirildi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2025-2027 yillarda uchuvchisiz uchish apparatlari orqali oziqlantirish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish va defiolatsiya qilish ishlari amalga oshiriladigan maydonlar tanlab olindi. Ushbu yo'nalishda xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish maqsadida joriy yil yakuniga qadar, 112 ta dron xarid qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Agrologistika markazlari soni 2025 yil boshiga kelib 50 tadan oshdi;

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish natijasida so'gi uch yil ichida 1000 dan ziyod fermer xo'jaligi raqamli hisobot tizimiga o'tdi.

Shu kabi, qishloq xo'jaligii jadal rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va 1 gektardan olinadigan daromadlarni oshirishga qaratilgan bir qator yangi tashabbuslarni misol keltirish mumkin.

Intensiv yechimlarning afzalliklari

Yuqorida keltirilgan loyihalarni amalga oshirish natijasida, ushbu yo'nalishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari birinchi navbata O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulotidagi qishloq xo'jaligi ulushining oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologik barqarorlik jihatidan tabiiy resurslarni tejaydi va atrof-muhitni muhofaza qiladi hamda oziq-ovqat xavfsizligi jihatidan aholini uzluksiz, sifatli mahsulot bilan ta'minlash imkonini beradi.

O'z navbatida, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi orqali ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

Mavjud muammolar va hal etish yo'llari

Infratuzilmaning yetarli emasligi: Qishloq joylarda sug'orish va transport tizimi yetarlicha rivojlanmagan;

Investitsiya tanqisligi: Yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun zarur mablag' yetarli emas;

Kadrlar yetishmovchiligi: Agroinnovatsiya sohasida yuqori malakali kadrlar soni kam;

Malaka oshirish tizimining sustligi: Fermer va agrosohadagi mutaxassislar uchun muntazam o'quv dasturlari kam.

Takliflar:

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini subsidiyalash va imtiyozli kreditlar bilan moliyalashtirishda tabaqalashtirilgan moliyalashtirish tizimini joriy etish. Bunda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari toifalarga ajratiladi hamda moliyaviy holati nochor bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini birinchi navbatda

moliyaviy imkoniyatlarini tiklash nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jaligi loyihalari doirasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda agroinnovatsion markazlar ochish. Bundan ushbu markazlarni Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyati bilan uyg'unlashtirish.

Qishloq xo'jaligida yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, eksport va marketing, shunigdek, menejment yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni kengaytirish. Bu borada, hamkor tashkilotlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish.

Qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoillarini mustahkam belgilab olish, qonunchilikni takomillashtirish hamda imtiyozlarni keng targ'ib qilish.

Xulosa

O'zbekistonda barqaror qishloq xo'jaligini ta'minlash uchun intensiv va innovatsion yechimlarning joriy etilishi shubhasiz dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yechimlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlaydi, atrof-muhit muhofazasini ta'minlaydi va kelajak avlodlar uchun barqaror agrosanoat poydevorini yaratadi.

Innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish, mavjud infratuzilmani yaxshilash va ilmiy yondashuvni mustahkamlash — mamlakatning agrar salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda hamda barqaror qishloq xo'jaligi loyihalarini jadal rivojlantirishda muhim qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2024). Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha Milliy dastur (2023–2030-yillar). Toshkent.
3. Alimov A. A., & Xolbekov M. M. (2022). Agrotexnologiyalar va raqamli qishloq xo'jaligi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
4. Toshov B. R., & Karimov O. B. (2023). Qishloq xo'jaligida raqamli innovatsiyalar va intensiv texnologiyalar. // "Agrosanoat" ilmiy-amaliy jurnali, №2, 45–52-betlar.
5. FAO (2022). Digital Agriculture and Smart Irrigation Solutions in Central Asia. Food and Agriculture Organization of the United Nations. <https://www.fao.org>
6. Sodiqov, N. R. (2023). Barqaror qishloq xo'jaligi rivojida zamonaviy agroinnovatsiyalar. // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, №1(75), 60–68-betlar.
7. Jahon banki (2023). Innovatsion qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi loyihalari bo'yicha hisobot. Toshkent: Jahon banki O'zbekiston vakolatxonasi.
8. Karimova D. R. (2024). Intensiv dehqonchilik va iqlimga mos agrotexnika uslublari. // Ilm va taraqqiyot yo'lida, №4, 30–35-betlar.